



ISTE'MOL BOZORI

2017 yil yanvar-oktabr


Bugungi kunda, aholi ijtimoiy himoyasini muttasil yaxshilash bo'yicha izchil amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida respublikada aholi sonining o'sishi, daromadlarining ko'payishi kuzatilmoqda, aholining ish haqi va pensiyalarning oshirilishi natijasida esa oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlariga bo'lgan talab o'zgarmoqda va chakana savdo aylanmasining hajmi oshmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning 10 oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 foizga oshdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 11,0 foizni tashkil etdi. Iste'mol tovarlari, tamaki mahsulotlari, benzin, va alkogolli ichimliklarga bo'lgan talabning oshishi yirik korxonalarining o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,1 foizga ko'payishiga olib keldi.


Yanvar-oktabrda yirik korxonalarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi, foizda

10,1 11,0



2016 y. 2017 y.

2017 yil yanvar-oktabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi hajmining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda)




O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI


Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,5 foizga o'sdi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 89,0 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining deyarli 11,0 trln. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 12,9 foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 1,8 foizga oshib, 2,7 mln. so'mni tashkil etdi (2016 yil yanvar-oktabr oylarida 2,3 mln. so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahari (7,9 mln. so'm), Navoiy viloyati (3,7 mln. so'm) va Toshkent viloyatida (3,2 mln. so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining tovar aylanmasi

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 2,3 trln. so'mni tashkil etdi va 2,5 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 2,7 foizni tashkil etdi.

Davlat statistika qo'mitasining
Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
boshqarmasi
Nashr uchun mas'ul: A.Nadirov
(0371) 230-80-42



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Toshkent shahri (22,4 foiz), Toshkent (10,6 foiz), Farg'ona (8,8 foiz), Samarqand (8,5 foiz) va Andijon (7,7 foiz) viloyatlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.